

## O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH

*Jalmatova Go'zal Sulaymon qizi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi*

[\*jasurgozal9994@gmail.com\*](mailto:jasurgozal9994@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekoturizm, uning asosiy tamoyillari shuningdek, ekoturizm sohasining rivojlanishi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekoturizm, tamoyillar, madaniy-ma'rifiy soha, ekologiya, ta'sir, aholi, davlat rivojlanishi, tabiat tozaligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается экотуризм, его основные принципы, а также развитие индустрии экотуризма.

**Ключевые слова:** Экотуризм, принципы, культурно-просветительская сфера, экология, влияние, население, государственное развитие, природная чистота.

**Abstract:** This article covers ecotourism, its main principles, as well as the development of the ecotourism industry.

**Keywords:** Ecotourism, principles, cultural-educational sphere, ecology, influence, population, state development, natural purity.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunimizda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bu turizm sohasidir. Davlat rivojlanishida turizm sohasi juda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa ekoturizm eng muhimidir, chunki mamlakatning havosi, tabiati ya'ni ekologik holati qanchalik toza va insonni o'ziga jalb qila olsa ana shu zonada turizm yaxshi rivojlanadi. Keling ekoturizm haqida gaplashaylik. Ekoturizm o'zi nima?

Ekoturizm - antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli hisoblanadi. Ekoturizm-bu ekotizimlarning yaxlitligini buzmaydigan va tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'ladigan iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan hududning tabiiy va madaniy-etnografik xususiyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun toza tabiatga ega joylarga sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizmdir.

Ekoturizmning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi;

-Tabiatga sayohat va bunday sayohatlarning asosiy mazmuni hayvonot dunyosi, mahalliy urf-odatlar va madaniyatlari bilan tanishishdir.

-Ekologik va ijtimoiy-madaniy tabiatning salbiy oqibatlarini minimallashtirish, atrof-muhitning ekologik tozaligini saqlash.

-Tabiat va mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitni muhofaza qilishga yordam berish.

-Ekologik ta'lim va ma'rifat.

-Mahalliy aholining ishtiroki va ularning turizm faoliyatidan daromad olishi tabiatni muhofazasida iqtisodiy rag'bat yaratadi.

-Iqtisodiy samaradorlik va tashrif buyurilgan hududlarning tizimli rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab turli xil fikr-mulohazalar olg'a surilmoqda va shu o'rinda, "O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishning muhim jihatlari nimalar?" degan savol tug'iladi. Buning bir necha javoblari bor:

Birinchidan, xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga ko'payib bormoqda. Ko'pgina olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy tajribalari xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar tezlikda kechmoqda;

Ikkinchidan, O'zbekistonda turizmning tarixiy turizm, diniy turizm, madaniy turizm kabi turlari yuzasidan ma'lum yutuq va tajribalar bazasi shakllandi;

Uchinchidan, ayni paytda O'zbekistonda 800ga yaqin turizm faoliyatini ko'rsatuvchi turoperatorlik firmalari, 600ga yaqin mehmonxonalar, 30dan ortiq muhofazaga olingan hudud ya'ni qo'riqxonalar, milliy bog', nodir tabiat yodgorliklari

kabilar va 60 ta o'rmon xo'jaliklari, faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorliklari mavjud.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsadlar quyidagicha;

-jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati hamda tabiiy potentsiali va resurslarini namoyish qilish;

-hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada yaxshi va samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etishni rag'batlantirish;

-turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati hamda ulushini o'stirish;

-O'zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadalrivojlantirish;

-istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish va tatbiq qilish;

-O'zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishda ekoturizm rolini oshirish va h.k.

O'zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari orqali "Toshkent-Chorvoq-Toshkent", "Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent", "Toshkent-Zomin-Toshkent", "Toshkent-Aydarko'l-Toshkent" kabi marshrutlarda o'tkazilgan ekoturlar, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor hamda yaxshi e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda.

Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya joylaridagina faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq, O'zbekistonning Hisor, Bobotog', Ko'hitangtog' (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg'ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog'lari, Qizilqum cho'lidagi qoldiq tog'lar, Qizilqum cho'li, Orol dengizining qurigan tubi va qodiq sho'r ko'llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho'rxogi, Mingbuloq botig'i, Aydarko'l, Dengizko'l,

Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to‘qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo‘ylab majmualari va mavzuli ekoturlarni rivojlantirish tizimli yo‘lga qo‘yilmagan.

O‘zbekistonda o‘ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo‘lgan speleoturizm ya‘ni g‘or turizmi kata va yaxshigina imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O‘zbekistonda 500dan ortiq g‘orlar mavjud bo‘lib, ma'lumotlarga ko‘ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo‘lmaganligi tufayli ularning hech birida ekoturlar tashkil etilmayapti.

O‘zbekiston cho‘llari va tekislik hududlarida barxan, dyuna, to‘qay, sho‘rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho‘ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o‘tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish turizm sohasida kata va ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Katta Chimyon, Zomin, Chotqol, Ko‘ksuv, Piskom, Turkiston, Hisor, Zarafshon, Oloy, Qurama, Nurota tog‘larida piyoda, trekking turlarini hamda alpinizmni tashkil etishga tabiiy va geografik shart-sharoitlar yaxshi yaratilgan. Shuningdek, tog‘lardan oqib tushuvchi ko‘plab serostona va sharqiroq daryo va soylar ,masalan, Ugam, Chotqol, Piskom, Ko‘ksuv, To‘polondaryo, Shoximardon, Sangzor, Zarafshon kabilarda rafting turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxassislarning tadqiqotlari natijasidagi ma'lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holdarivojlanib kelmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy va o‘quv adabiyotlar nashr qilindi. An'anaviy ustoz-shogird tizimida ekoturizm va o‘lkashunoslikning nazariy jihatlari o‘rganildi. Lekin bu boradagi natijalar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal holatida guruhni boshqara oladigan, kerak bo‘lsa birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish malakasiga ega

bo'lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini bildirmoqda. Negaki, tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari asosan shahar joylarda, turistik infrastruktura va servis obektlari yetarli joylarda o'tkazilsa, ekoturlar asosan tabiat qo'ynida va geotizimlarda olib boriladi, shuningdek bazi ekoturlar ekstremalligi bilan ko'rsatiladi.

### **Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin;**

fikrimizcha, ekoturizm - bu, turizmning tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan shu bilan bir qatorda tabiatning tabiiy muhitda moslashuvini targ'ib qiladigan va mahalliy aholining turmush tarzini o'zgartiruvchi maxsus sohasidir. Ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan asosiy omillar tabiatga sayyohat va uni muhofaza qilishni o'zaro birlashtiradi hamda shu tariqa atrof-muhit himoyasining iqtisodiy rag'batini sifatida foydalanadi. Yana birqulay tarafi, u yovvoyi tabiat bilan jamiyatning turli-tuman madaniy qadriyatlari orasidagi munosabatni yaxshiroq tushunish hamda bu haqda ko'proq axborotlar olishga sharoit yaratadi. Asosiy vazifa ekoturistik soha tijorat jihatidan o'zini oqlashi, ekologik jihatdan barqaror bo'lishi va madaniyatga nisbatan mas'uliyat bilan yondashuvlarni tashkil qilishdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2018 yil 19 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 31 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan

Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // "Xorazm haqiqati" gazetasi. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947-sonli Farmoni.

5.Alimov A. Qorqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishda Ustyurt platosining roli // Birja Ekspert. – Toshkent, 2017. - №4. – 53 b.

6.O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari.

### **Internet manbalari**

1.<http://www.economywatch.com>

2.[www.ecotourizm.org](http://www.ecotourizm.org)

3.<https://uz.wikipedia.org>